

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZNING MORFEMIK TARKIBINI INTERFAOL METODLAR BILAN O'QITISH

Mohidil Xudayberganova Arapboyevna

Toshkent shahar Sergeli tumani

237- maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar uchun morfemik tarkibni tahlilini tushuntirish, o'quvchilar ongini o'stirish uchun interfaol metodlardan foydalanish haqidagi fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: leksik ma'no, asos, qo'shimcha, shakl yasovchi, "Aql charxi", "Kungaboqar" ,imlo.

Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikda faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilab bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitishning metodlari sifatida tushuntirish bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv-deduktiv metodlar ona tili darslarini tashkil etishda qo'llanilib kelindi. Hozirgi kunga kelib darslarni interfaol metodlardan foydalanib o'tish talab qilinmoqda. Bu metodlar bolani yoshiga va o'tilayotgan mavzuga mos tushishi muhim hisoblanib, ayniqsa, ona tili mavzularini o'quvchilarga yanada osonroq qilib tushuntirib berishga mo'ljallanadi. So'zning leksik ma'nosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o'zining nazariy asosiga ega. Morfemika bo'limi tilning eng kichik ma'noli qismlarini o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi. Morfemika bo'limining o'rganish predmeti – morfemadir. Morfemalar morfologik turkumlar va bu turkumlar tarkibida o'rganiluvchi qo'shimchalar ta'sirida yuzaga keladi. Shu boisdan morfemalarni tasniflasak, ikki turga ajraladi:

Asos- mustaqil lug`aviy ma`no anglatib,so`roqqa javob bo`la oladigan ,gap bo`lagi bo`lla oladigan yetakchi qism.Asos , deyarli, mustaqil so`z turkumidan iborat bo`ladi. Vatanim so`zining asosi vatan +im hisoblanadi.

Qo`shimcha – asosga qo`shilib, mustaqil lug`aviy ma`no ifodalamaydigan ,so`roqqa javob bo`la olmaydigan va gap bo`lagi bo`la olmaydigan kategoriya bo`lib, lekin asosga yangi ma`no beruvchi,qo`shimcha ma`no yuklovchi ,shuningdek, so`zni so`zga bog`lovchi vositadir.

Qo`shimchalar o`z navbatida ikki turga ajraladi:

1.So`z yasovchi qo`shimchalar- asosga qo`shilib,yangi ma`no beruvchi qo`shimchalar : ish+chi,gul+don,kitob+xon, darvoza+bon,tila+k.

2.Shakl yasovchi- asosga qo`shilib, so`zga qo`shimcha ma`no yuklovchi (lug`aviy shakl yasovchilar) va so`zni so`zga bog`lovchi(sintaktik shakl yasovchilar) qo`shimchalardir.

O`quvchilar so`zning morfemik tarkibini va so`z yasalishini o`rganishlariga qarab, so`zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar. Ular yasama so`zlarning leksik ma`nosini so`zlarning semantik o`xshashligiga qarab bilib oladilar. So`zlarning morfemik tarkibi ustida ishlashning ahamiyatini o`qituvchi tomonidan tashkil qilingan dars davomida interfaol metodlar bilan boshqarish kuchli samara beradi. So`zning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan o`quvchilar so`zning leksik ma`nosini aniqlashning asosiy usullaridan birini bilib oladilar. Bunda o`qituvchining vazifasi o`quvchilar so`zlarning leksik ma`nosi va morfemik tarkibi bir-biriga bog`liqligini bilib olishi uchun eng qulay sharoit yaratish, shu asosda ularning lug`atiga aniqlik kiritishga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hisoblanadi. Bu jarayonda o`qituvchi **“Qo`shning top** “interfaol metodidan foydalanishi mumkin.Bunda sinf o`quvchilar ikki guruhga ajraladi.O`qituvchi bir so`z aytadi , birinchi guruh bu so`zning ma`nosini aytadi,ikkinchi guruh so`zning tarkibini ajratadi.Bu jarayonni o`qituvchi baholab boradi.O`yin 1 daqiqacha davom etadi.Shunda so`zning leksik ma`nosi morfemik ma`nosi bilan yaqinligi anglashiladi.

Soʻz yasalishi haqidagi elementar bilim ham oʻquvchilarning tilimizning yangi soʻzlar bilan boyishining asosiy manbasini tushunishlari uchun muhimdir. Yangi soʻz tilda mavjud boʻlgan morfemalardan, maʼlum usul va modellar asosida vujudga keladi (yasaladi). Soʻz yasalishini kuzatish oʻquvchilarda soʻzga faol munosabatni shakllantirishga ijobiy taʼsir etadi, tilning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga olib keladi. Bunda oʻqituvchi **“Aql charxi “** interfaol metodidan foydalanishi mumkin. Sinfdan 10 ta oʻquvchi saralab olinib, doskaga chiqariladi. Vaqt belgilanib, oʻqituvchi bitta, masalan, -li qoʻshimchasini aytadi. Chaqqonlik bilan doskada oʻquvchilar oʻz aqllarini charxlab soʻz yasashadi: aqlli, sehrli, bilimli, adolatli, koʻngilli. Soʻz yasalishi asoslari bilan tanishish oʻquvchilar lugʻatini atrof-muhit haqidagi bilimlar bilan boyitishga imkon beradi. Predmet, jarayon, voqea-hodisalar haqidagi tushunchalar soʻz bilan ifodalanadi. Soʻzlar oʻrtasidagi maʼno va tuzilish jihatidan bogʻlanishni belgilash oʻzaro munosabatda boʻlgan tushunchalar oʻrtasidagi bogʻlanishga tayanadi (masalan, *traktor* va *traktorchi* soʻzlari oʻzaro munosabatda boʻlgan tushunchalar, shu tufayli maʼno va tuzilishiga koʻra bogʻlangan). Bu ifodani tushuntirishda **“Kungaboqar “** metodidan foydalanish mumkin. Markazda bitta soʻz yoki asos ifoda etilib, shu asosga qoʻshila oladigan qoʻshimchalar kungaboqar qismlari sifatida ifodalanishi mumkin. Masalan, temir asosiga -chi, -chilik, -dan, -ni, -lar kabi qoʻshimchalar qoʻshila oladi. Oʻquvchilar soʻzlarning maʼno va tuzilishiga koʻra oʻzaro munosabatini haqiqatan bilsalar, atrof-muhitda mavjud boʻlgan predmetlar, jarayonlar, voqealar oʻrtasidagi bogʻlanishni chuqur tasavvur etadilar, biladilar.

Soʻzda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, qoʻshimchalarning semantik maʼnosini bilish oʻquvchilarda nutqning aniq shakllanishiga taʼsir etadi. Soʻz tarkibini oʻrganish darslarida mustaqil ishlarni uyushtirish natijasida oʻquvchilarning grammatikaga oid bilimlari va imlo malakalarini egallashlariga imkon beradigan quyidagi vazifalarni bajarishga imkoniyat yaratiladi.

1. Turli oʻquv mashqlarini bajarish natijasida oʻquvchilar soʻz tarkibidagi oʻzak va qoʻshimchalar haqida tushunchaga ega boʻladilar.

2. O`quvchilar so`z tarkibini tahlil qilishni o`rganadilar. O`zakdosh so`zlarni aniqlash, ma'lum bir o`zakka turli qo`shimchalar qo`shib, o`zakdosh so`zlar yasash, so`zlarga so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar qo`shib gap tuzish singari malakalarni egallaydilar.

3. So`z yasash va so`z o`zgartirishda qatnashadigan turli qo`shimchalar imlosini o`zlashtirib boradilar.

4. Aytilishi bilan yozilishida farq qiladigan undoshlar va talaffuzda tushib qoladigan undoshlar, ketma-ket kelgan bir xil undoshlar imlosini o`rganadilar.

5. Mashqlar davomida o`quvchilar lug`ati yangi so`zlar hisobiga boyib, nutqlari o`sib boradi.

O`qituvchining vazifasi o`quvchilarning so`zning leksik ma`nosini tushunibgina qolmay, kontekstda aniq qo`shimchali so`zlardan ongli foydalanishlarini ham o`rgatish hisoblanadi. So`zning morfemik tarkibini o`rganish imloviy malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Fonetik tamoyil yangi o`zbek imlosining yetakchi tamoyili bo`lib, bunga binoan so`zlar va ularning tarkibiy qismi (asos va qo`shimchalar) ko`proq talaffuziga muvofiq yoziladi. Asos va qo`shimchalarni to`g`ri yozish malakasini nazariy asosda shakllantirish fonetik, so`z yasalishiga oid, grammatik bilimlarni maqsadga muvofiq tatbiq etishni talab qiladi. SHuning uchun so`zning morfemik tarkibini o`rganishning muhim vazifalaridan biri asos va qo`shimchalarni to`g`ri yozish malakasini shakllantirish uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalar asosini yaratish hisoblanadi. So`zning morfemik tarkibini o`rganish o`quvchilarning aqliy qobiliyatini o`stirishda, xususan, til birligi sifatida so`zni ongli bilib olish uchun zarur bo`lgan maxsus aqliy ko`nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatli. O`qituvchining vazifasi ta`lim jarayonida bilimni o`zlashtirish bilan o`quvchilarda aqliy faoliyatni o`stiradigan, analiz, taqqoslash ko`nikmalarini shakllantiradigan sharoit yaratish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda ,boshlang`ich sinflarda so`zning morfemik tarkibini zamonaviy interfaol metodlar bilan darsni shakllantirish o`quvchini bilimining samaradorligi uchun juda yuqori darajani beradi.O`ziga xos ta`lim metodlarini qo`llash o`qituvchi mahoratini va o`quvchining darsga qiziqishini o`stiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.Qosimova va boshqalar .Ona tili o`qitish metodikasidan .T.Noshir.2009
M.Yusupov . O`qish va yozish darslari samaradorligini oshirish .Toshkent .O`qituvchi . 1992. 3."Boshlang`ich ta'lim ", Til va adabiyot ta'limi "jurnali